

ISSN 2181-7812

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI



ВЕСТНИК
ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

**«Zamonaviy pediatriyaning
dolzarb muammolari:
bolalar kasalliklari diagnostikasi va
davosining yangi imkoniyatlari»**
mavzusidagi III-xalqaro ilmiy-amaliy anjumanga
bag'ishlangan

MAXSUS SON

2024

TOSHKENT


ISSN 2181-7812



9 772181 781009

2011 йилдан чиқа бошлаган

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI АХБОРОТНОМАСИ



ВЕСТНИК

ТАШКЕНТСКОЙ МЕДИЦИНСКОЙ АКАДЕМИИ

«Zamonaviy pediatriyaning
dolzarb muammolari: bolalar
kasalliklari diagnostikasi va
davosining yangi imkoniyatlari»

**mavzusidagi III-xalqaro ilmiy-amaliy
anjumanga bag'ishlanga**

MAXSUS SON

I qism

Тошкент



Выпуск набран и сверстан на компьютерном издательском комплексе

редакционно-издательского отдела Ташкентской медицинской академии

Начальник отдела: М. Н. Аслонов

Редактор русского текста: О.А. Козлова

Редактор узбекского текста: М.Г. Файзиева

Редактор английского текста: А.Х. Жураев

Компьютерная корректура: З.Т. Алюшева

Учредитель: Ташкентская медицинская академия

Издание зарегистрировано в Ташкентском Городском управлении печати и информации

Регистрационное свидетельство 02-00128

Журнал внесен в список, утвержденный приказом № 201/3 от 30 декабря 2013года

реестром ВАК в раздел медицинских наук

Рукописи, оформленные в соответствии

с прилагаемыми правилами, просим направлять

по адресу: 100109, Ташкент, ул. Фароби, 2,

Главный учебный корпус ТМА,

4-й этаж, комната 444.

Контактный телефон: 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru

rio@tma.uz

Формат 60x84 1/8. Усл. печ. л. 9,75.

Гарнитура «Cambria».

Тираж 150.

Цена договорная.

Отпечатано на ризографе редакционно-издательского отдела ТМА.

100109, Ташкент, ул. Фароби, 2.

Вестник ТМА 2024
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ

Главный редактор

проф. А.К. Шадманов

Заместитель главного редактора

проф. О.Р.Тешаев

Ответственный секретарь

проф. Ф.Х.Иноятова

ЧЛЕНЫ РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ

акад. Аляви А.Л.

проф. Билалов Э.Н.

проф. Гадаев А.Г.

проф. Жае Вук Чои (Корея)

акад. Каримов Ш.И.

проф. Татьяна Силина (Украина)

акад. Курбанов Р.Д.

проф. Людмила Зуева (Россия)

проф. Метин Онерчи (Турция)

проф. Ми Юн (Корея)

акад. Назыров Ф.Г.

проф. Нажмутдинова Д.К.

проф. Саломова Ф.И.

проф. Саша Трескач (Германия)

проф. Шайхова Г.И.

Члены редакционного совета

проф. Акилов Ф.О. (Ташкент)

проф. Аллаева М.Д. (Ташкент)

проф. Хамдамов Б.З. (Бухара)

проф. Ирискулов Б.У. (Ташкент)

проф. Каримов М.Ш. (Ташкент)

проф. Маматкулов Б.М. (Ташкент)

проф. Охунов А.О. (Ташкент)

проф. Парпиева Н.Н. (Ташкент)

проф. Рахимбаева Г.С. (Ташкент)

проф. Хамраев А.А. (Ташкент)

проф. Холматова Б.Т. (Ташкент)

проф. Шагазатова Б.Х. (Ташкент)

Herald TMA 2024

EDITORIAL BOARD

Editor in chief

prof. A.K. Shadmanov

Deputy Chief Editor

prof. O.R. Teshayev

Responsible secretary

prof. F.Kh. Inoyatova

EDITORIAL TEAM

academician Alyavi A.L.

prof. Bilalov E.N.

prof. Gadaev A.G.

prof. Jae Wook Choi (Korea)

academician Karimov Sh.I.

prof. Tatyana Silina (Ukraine)

academician Kurbanov R.D. prof. Lyudmila Zueva (Russia)

prof. Metin Onerc (Turkey)

prof. Mee Yeun (Korea)

prof. Najmutdinova D.K.

prof. Salomova F.I.

prof. Sascha Treskatch (Germany)

prof. Shaykhova G.I.

EDITORIAL COUNCIL

DSc. Abdullaeva R.M.

prof. Akilov F.O. (Tashkent)

prof. Allaeva M.D. (Tashkent)

prof. Khamdamov B.Z. (Bukhara)

prof. Iriskulov B.U. (Tashkent)

prof. Karimov M.Sh. (Tashkent)

prof. Mamatkulov B.M. (Tashkent)

prof. Okhunov A.A. (Tashkent)

prof. Parpieva N.N. (Tashkent)

prof. Rakhimbaeva G.S. (Tashkent)

prof. Khamraev A.A. (Tashkent)

prof. Kholmatova B.T. (Tashkent)

prof. Shagizatova B.X. (Tashkent)

*Journal edited and printed in the computer of Tashkent
Medical Academy editorial department*

Editorial board of Tashkent Medical Academy

Head of the department: M.N. Aslonov

Russian language editor: O.A. Kozlova

Uzbek language editor: M.G. Fayzieva

English language editor: A.X. Juraev

Corrector: Z.T. Alyusheva

Organizer: Tashkent Medical Academy

*Publication registered in editorial and information
department of Tashkent city*

Registered certificate 02-00128

*Journal approved and numbered under the order 201/3 from 30 of
December 2013 in Medical Sciences DEPARTMENT OF SUPREME ATTESTATION*

COMMISSION

COMPLETED MANUSCRIPTS PLEASE SEND following address:

*2-Farobiy street, 4 floor room 444. Administration building of TMA.
Tashkent. 100109, Toshkent, ul. Farobi, 2, TMA bosh o'quv binosi, 4-qavat,
444-xona.*

Contact number: 71- 214 90 64

e-mail: rio-tma@mail.ru. rio@tma.uz

Format 60x84 1/8. Usl. printer. l. 9.75.

Listening means «Cambria».

Circulation 150.

Negotiable price

Printed in TMA editorial and publisher department risograph

2 Farobiy street, Tashkent, 100109.

<i>Bobomuratov T.A., Yusupova U.U. FEATURES OF CLINICAL COURSE AND IMMUNE REGULATION OF THE HEMOSTATIC SYSTEM IN CHILDREN WITH ACUTE BRONCHOPULMONARY DISEASES WITH VARIOUS ECOLOGICAL RESIDENCE CONDITIONS</i>	<i>Bobomuratov T.A., Yusupova U.U. TURLI EKOLOGIK HAYOT SHARTLARI BO'LGAN O'TKIR BRONXOPULMONAAR KASALLIKLARDA GEMOSTAZ TIZIMINING KLINIK KURS VA IMMUNORGULLANISHI XUSUSIYATLARI.</i>	164
<i>Bobomuratov T.A., Mallayev Sh.Sh., Fayziev N.N., Egamberdiev S.B., Muxtorov M.G. SHIFOXONADAN TASHQARIZOTILJAMBILAN KASALLANGAN BOLALARDA GEMOSTAZ TIZIMINING O'ZGARISHLARIDA GEN POLIMORFIZMINING ROLI</i>	<i>Bobomuratov T.A., Mallayev Sh.Sh., Fayziev N.N., Egamberdiev S.B., Muxtorov M.G. ROLE OF GENE POLYMORPHISM IN CHANGES IN THE HEMOSTASIS SYSTEM IN CHILDREN WITH COMMUNITY ACQUIRED PNEUMONIA</i>	168
<i>Бобомуратов Т.А., Маллаев Ш.Ш., Файзиев Н.Н., Эгамбердиев С.Б., Мухторов М.Г. РОЛЬ ГЕНЕТИЧЕСКОГО ПОЛИМОРФИЗМА PAI-1 В ТЯЖЕЛОМ ТЕЧЕНИИ ВНЕБОЛЬНИЧНОЙ ПНЕВМОНИИ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Mallaev Sh.Sh., Fayziev N.N., Egamberdiev S.B., Mukhtorov M.G. ROLE OF GENETIC POLYMORPHISM PAI-1 IN SEVERE COMMUNITY-ACQUIRED PNEUMONIA</i>	172
<i>Бобомуратов Т.А., Маллаев Ш.Ш., Файзиев Н.Н., Эгамбердиев С.Б., Мухторов М.Г., Юсупова З.А. РОЛЬ ГЕННОГО ПОЛИМОРФИЗМА В РАЗВИТИИ ЮВЕНИЛЬНОГО РЕВМАТОИДНОГО АРТРИТА У ДЕТЕЙ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Mallaev Sh.Sh., Fayziev N.N., Egamberdiev S.B., Mukhtorov M.G., Yusupova Z.A. ROLE OF GENE POLYMORPHISM IN THE DEVELOPMENT OF JUVENILE RHEUMATOID ARTHRITIS IN CHILDREN</i>	175
<i>Бобомуратов Т., Маллаев Ш.Ш., Уринов А.Ф., Юсупова З.А. КЛИНИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ЮВЕНИЛЬНОГО ИДИОПАТИЧЕСКОГО АРТРИТА У ДЕТЕЙ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Mallaev Sh.Sh., Urinov A.F., Yusupova Z.A. CLINICAL FEATURES OF JUVENILE IDIOPATHIC ARTHRITIS IN CHILDREN</i>	179
<i>Бобомуратов Т.А., Самадов А.А. БОЛАЛАРДА НЕФРОТИК СИНДРОМДА ГАСТРОДУОДЕНАЛ КАСАЛЛИКЛАРНИ ТАШХИСЛАШ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Samadov A.A. DIAGNOSIS OF GASTRODUODENAL DISEASES IN NEPHROTIC SYNDROME IN CHILDREN</i>	182
<i>Бобомуратов Т.А., Султанова Н.С., Аvezова Г.С., Отабоева Ш.Ш., Ташпулатова Г.К. ОЗИҚЛАНТИРИШ ТУРЛАРИ БИЛАН ФАРҚЛАНАДИГАН БОЛАЛАРНИНГ ПСИХОФИЗИОЛОГИК РИВОЖЛАНИШИ ВА УЛАРНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Sultanova N.S., Avezova G.S., Otaboeva Sh.Sh., Tashpulatova G.K. PSYCHOPHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH DIFFERENT TYPES OF NUTRITION AND THEIR COMPARATIVE ANALYSIS</i>	187
<i>Бобомуратов Т.А., Султанова Н.С., Аvezова Г.С., Маллаев Ш.Ш. ПОКАЗАТЕЛИ ФИЗИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ ПРИ РАЗЛИЧНЫХ ВИДАХ ВСКАРМЛИВАНИЯ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Sultanova N.S., Avezova G.S., Mallaev Sh.Sh. DYNAMICS OF CHILDREN'S PHYSICAL DEVELOPMENT INDICATORS UNDER DIFFERENT TYPES OF FEEDING</i>	191
<i>Бобомуратов Т.А., Турсунбаев А.К., Каримова Н.А., Нурматова Н.Ф. ПРОЯВЛЕНИЯ ПОСТКОВИДНОГО СИНДРОМА У ДЕТЕЙ</i>	<i>Bobomuratov T.A., Tursunbaev A.K., Karimova N.A., Nurmatova N.F. BOLALARDA POST-COVID SINDROMINING NAMOYON BO'LISHI</i>	195
<i>Владимирова Ю.В., Мазур Л.И., Жирнов В.А. ВЗАИМОСВЯЗЬ ИЗБЫТОЧНОЙ МАССЫ ТЕЛА И ПЛОСКОСТОПИЯ У ДЕТЕЙ НА ФОНЕ ОСТРОЙ ВИРУСНОЙ ИНФЕКЦИИ</i>	<i>Vladimirova Yu.V., Mazur L.I., Zhirnov V.A. THE RELATIONSHIP BETWEEN EXCESS BODY WEIGHT AND FLAT FEET IN CHILDREN AGAINST ACUTE VIRAL INFECTION</i>	200
<i>Ганиев А.Г., Аvezова Г.С., Хабибуллоева Б.Р. КАЧЕСТВЕННОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МАТЕРЕЙ ДЕТЕЙ С АТОПИЧЕСКИМ ДЕРМАТИТОМ: ЭМОЦИОНАЛЬНЫЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ</i>	<i>Ganiev A.G., Avezova G.S., Khabibulloyeva B.R. QUALITATIVE RESEARCH OF MOTHERS OF CHILDREN WITH ATOPIC DERMATITIS: EMOTIONAL AND SOCIAL CONSEQUENCES</i>	203
<i>Ганиева М.Ш., Ганиев О.К. АНАЛИЗ ПРИЧИННЫХ ФАКТОРОВ СРЕДИ ЧАСТО БОЛЕЮЩИХ ДЕТЕЙ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ</i>	<i>Ganieva M.Sh., Ganiev O.K. ANALYSIS OF CAUSAL FACTORS AMONG FREQUENTLY ILL CHILDREN IN ANDIJAN REGION</i>	209

INNOVATION PEDAGOGIK USULLARNI JORIY ETISH ORQALI TALABALAR BILIM, MALAKA, KO'NIKMALARINI OSHIRISH

Azizova F.L., Avezova G.S., Dusmatova M.B., Ataeva G.I.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЗНАНИЙ, НАВЫКОВ И НАВЫКОВ СТУДЕНТОВ ПУТЕМ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ

Азизова Ф.Л., Аvezова Г.С., Дусматова М.Б., Атаева Г.И.

IMPROVING THE KNOWLEDGE, SKILLS AND SKILLS OF STUDENTS BY IMPLEMENTING INNOVATIVE PEDAGOGICAL METHODS

Azizova F.L., Avezova G.S., Dusmatova M.B., Ataeva G.I.

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Bekobod shaxar Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi

Одним из основных требований при внедрении кредитно-модульной системы в учебный процесс является организация студентскоориентированного обучения. Эта образовательная система направлена на формирование у учащихся способностей мыслить самостоятельно, делиться своими знаниями с другими и принимать решения самостоятельно. Организация образовательного процесса – это усвоение информации о важных свойствах внешнего мира, необходимых для успешной организации того или иного вида идеальной и практической педагогической деятельности, что, в свою очередь, зависит от правильного выбора и использования методов обучения и соответствующие методы и процессы.

Ключевые слова: образование, инновационные методы, личностно-ориентированное образование, проблемное обучение.

One of the main requirements for the introduction of the credit module system in the educational process is the organization of student-oriented education. This educational system is aimed at forming students' abilities to think independently, share their knowledge with others, and make decisions for themselves. The organization of the educational process is the assimilation of information about the important properties of the external world necessary for the successful organization of this or that type of ideal and practical pedagogical activity, which in turn depends on the correct selection and use of educational methods and appropriate methods and processes. The article presents a review of scientific literature on educational methods and the advantages of their application to the educational process.

Key words. Education, innovative methods, student-centered education, problem-based teaching

Олий та'лим тизимida yuqori sifat va samaradorlikka erishish eng avvalo ta'lim jarayonining qanday tashkil etilganligi, o'quv-uslubiy ishlarning zamonaviy talablarga qay darajada javob bera olishi bilan baholanadi. Ta'lim tizimini doimo isloh etish, o'qitish usul va vositalarini takomillashtirish, ta'lim mazmunini boyitish bugungi kunning muhim talabidir. O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019 yilning 8 oktabridagi PFN№5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida "....o'quv jarayoni bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish, ilg'or standartlarni joriy etish, jumladan, nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tish ..." kabi vazifalar belgilangan.

Ta'lim olish jarayoni insondagi motivlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, uning mohiyati inson xulq-atvorining ichki barqarorligi, harakatga undovchi tushunchalari orqali ifodalanadi. Motivatsiya xulq-atvorni psixologik va fiziologik boshqarishning dinamik jarayoni bo'lib, unga tashabbuskorlik, yo'nalganlik, tashkilotchilik, qo'llab-quvvatlash kiradi. Ta'lim jarayonida o'qish motivlari "nima uchun?", "nimaga?", "qanday maqsad bilan?" kabi savollar asosida yuzaga keladi. Motivlar bir-

inchidan, o'quv faoliyatiga undasa, ikkinchidan, maqsadga erishish uchun zarur yo'l va usullar tanlashga yordam beradi [1,3,5,6,9].

Ta'lim maqsadlari – diagnostik, o'qish-o'qitish qayta ishlab chiqiladigan – takrorlanadigan bo'lishi uchun har bir maqsad erishiladigan bo'lishi lozim, ya'ni ta'lim maqsadi shunday ifodalanishi lozimki, unga erishilgani haqida aynan bir xil hukm chiqarish mumkin bo'lsin. Talabani o'rganish natijasini anglaydigan vazifalar oydinlashtirilgan o'quv maqsadlari deyiladi. Oydinlashtirilgan maqsadlar talabaning kuzatish, o'lchash mumkin bo'lgan harakatlarini nazarda tutadi [4,5,10,11,14].

An'anaviy ta'lim mazmuni ko'pincha, mavzular shaklida bo'lib, ulardan aniq bir xil ma'no anglatadigan o'quv maqsadlarini ajratib olish qiyin. O'quv vazifalari (oydinlashtirilgan maqsad)larini ifodalashni osonlashtirish maqsadida talaba bilib, o'rganib olgan harakatlarini aks ettiradigan fe'llardan foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, biladi (aniq faktni, qoidani), izohlaydi (sxema, grafik, diagrammani); chiqaradi (xulosani); qo'llaydi (tushunchani – yangi vaziyatda); namoyish etadi, ajratadi, topadi (xatoni) kabilar [2,7,9].

Zamonaviy ta'lim sharoitida bo'lajak mutaxassislarida kasbiy malakalarni shakllantirish ularning mustaqil o'rganish, muammoni hal etish, va ijodiy yondashish qo-

biliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu xususiyatlarga ta'lim oluvchilarning mustakil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va bilim olishdagi faoliyatini faollashtirish orqali erishiladi.

Ta'lim oluvchi mustaqil va ijodiy faoliyatda hodisalarni kuzatish, taqqoslash, bir-biridan farqli jihatlarini aniqlash, umumlashtirish kabi xususiyatlar orqali ko'zlangan maqsadiga erishishi mumkin. Demak fanlarni o'qitishda ham ta'lim oluvchilarning bilim olish va o'rganish faoliyati o'z-o'zidan faollashmaydi, u eng avvalo aqliy va ongli munosabat natijasida yuzaga keladi [3,6,8,11,13].

Bugungi kunda oliy tibbiy ta'limda o'qitish-bu an'anaviy o'qitish bo'lib, u o'qituvchiga, uning talablari, muammo-ga qarashlariga asoslangan. Ayni vaqtda o'qish o'quvchiga mo'ljallangan va u o'quvchiga bog'liq bo'lishi lozim. Hozirgi kunda qo'llanilayotgan va tavsiya qilinayotgan o'qitish uslubi bilimlarni standartlashtirishga yordam bersa, kichik guruhlarda ishlash malakasini qo'llash esa, o'qishga yondashuvni individuallashtirish imkonini beradi. Kichik guruhlarda o'qitish mustaqil o'qish ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi. Universitetning asosiy maqsadlaridan biri –mustaqil o'qishga yo'naltirilgan kadrlarni yetishtirishdir. Mustaqil o'qish, har bir talaba o'zi qanday yaxshi qabul qilsa va tushunsa, shunday usulda bilim olish imkonini beradi. Mustaqil o'qishni kuchaytirish asosida talabalarning yangi bilim va ko'nikmalarni egallash motivatsiyasi yotadi [1,10,11].

Faol o'qishga asoslangan dasturni qanday ishlab chiqish mumkin?

1. Ta'lim dasturi mukammal ishlab chiqilgan bo'lishi kerak

2. Talabalarning o'ziga mo'ljallangan ta'lim taktikasini ishlab chiqish kerak

3. Ham talaba, ham o'qituvchi tomonidan beriladigan baholashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Dunyoning ilg'or universitetlarida talabalarni o'qitishning tan olingan usuli bu shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari orqali o'qitishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga Muammoli ta'lim, Modul ta'limi, Dasturiy ta'lim, Rivojlantiruvchi ta'lim, O'yin texnologiyalari, Interfaol ta'lim, Hamkorlik ta'limi, Tabaqalashtirilgan ta'lim, Kompyuter ta'limi, Masofaviy ta'lim, Individual ta'lim, Innovatsion ta'lim kiradi.

Muammoli ta'limda muammoli vaziyatlarni hal qilish metodi faol qo'llaniladi. Muammoli vaziyatlarni hal qilishda bahs-munozaralardan foydalaniladi. Bunda, ayniqsa, kichik guruhlarda ishlash samarali kechadi. Mazkur usulni qo'llash orqali o'quvchi, talabalar ma'lum muammoni hal qilishda bir necha variantlarni ilgari surish, ularning amaliy qiymatini baholash, ilgari surilgan muqobil variantlar orasidan eng maqbulini tanlash malakalarini o'zlashtiradilar.

Modul ta'limi (lotinchadan "modulus" – kichik o'lcham, ya'ni umumiy o'quv materialining alohida yoki fikran ajratilgan tarkibiy qismi) dan o'quvchilarning mustaqil ta'lim olishlarini yo'lga qo'yish, ularni ma'lum o'quv materialari bilan ta'minlash, ularning ta'limiy faoliyati yuzasidan monitoringni tashkil etishda foydalaniladi. Uni qo'llashda beriladigan yaxlit o'quv materialli blok (alohida ajratilgan qism)larda 1-blok, 2-blok va hokazo tarzida taqdim etiladi

Dasturiy ta'limning o'ziga xos jihati o'qitishning o'quvchilar ehtiyojlari, qiziqishlari, bilimlari, dunyoqarashlari hamda o'quv fanining imkoniyatlari, o'quvchilar tomonidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda duch kelinayotgan muammolarni inobatga olgan holda tashkil etilishi bilan belgilanadi. Uzluksiz ta'lim jarayonida dasturiy ta'limni qo'llashda pedagoglar tomonidan mualliflik dasturlarining ishlab chiqilishi ahamiyatlidir. Ular mashg'ulotlarning rang-barang bo'lishini ta'minlaydi, ta'lim muassasasining imkoniyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'quvchilarning ichki imkoniyatlari oshirish va ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiriladi. Ushbu ta'limda, ko'proq treninglar va taqdimotlardan foydalaniladi. Treninglar o'quvchilarda muayyan bilimlarni puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda samarali qo'llay olishga doir ko'nikma-malakalarni shakllantirishga, bu jarayonda ularning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Mazkur metod ta'lim oluvchilarda o'quv faoliyatini tashkil etishga ijodiy yondashish, o'z ustida ishlash, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini ham rivojlantirishga yordam beradi.

O'yin texnologiyalari ta'lim amaliyotida rolli va ishbi-larmonlik o'yinlaridan foydalanishni anglatadi. Ular o'quvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ma'lum hayotiy voqeelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun ko'nikma-malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Ta'lim jarayoni ishtirokchilari sifatida turli rollarni bajarish talabalariga pedagogik faoliyat mazmuni bilan yaqindan tanishish imkoniyatini yaratasa, o'quvchilarga ma'lum faoliyatni samarali tashkil etishga ham nazariy, ham amaliy, eng muhimi, ruhiy jihatdan tayyorlanishga yordam beradi.

Interfaol ta'lim (lot. "inter" – o'zaro) bugungi kunda keng ommalashgan ta'lim turlaridan biri sanaladi. Mazkur ta'lim turi o'qituvchi, o'quvchi va o'quvchilar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, o'qituvchi va o'quvchining bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari, qo'llashlari, ruhiy birlikka erishishlari bilan tavsiflanadi.

Hamkorlik ta'limi pedagog va o'quvchi (talaba) larning ta'limiy faoliyat jarayonida birgalikda rivojlanishlari, bir-birlarini tushuna olishlari, bir-birlariga nisbatan yaqinlikni his qilishlari, faoliyat bosqichlari va ularda erishilgan natijalarni hamkorlikda tahlil qilishdan iborat bo'lib, ilg'or, rivojlantiruvchi g'oyalarni o'zida aks ettirishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Hamkorlik ta'limining asosiy g'oyasi o'quv topshiriqlarini birgalikda bajarish hamda birgalikda ta'lim olishni nazarda tutadi.

Tabaqalashtirilgan ta'limdan uzluksiz ta'lim tizimida samarali foydalanish o'quvchi, talabalarning shaxsiy layoqatlari, qiziqishlari, qobiliyatlarini aniqlash asosida ularga turli o'zlashtirish darajalari bo'yicha, biroq, davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi talablaridan kam bo'lmagan hajmdagi materiallarning berilishini anglatadi.

Masofaviy ta'lim (lot. "distantia" – masofadan foydalanish) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ri-dan-to'g'ri masofadan o'qitish imkonini yaratadigan zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiy-

yalardan foydalanish bo'lib, unga ko'ra ta'lim jarayoni yangi axborot texnologiyalar, multimediya tizimi yordamida tashkil etiladi. U o'quv fanlari bo'yicha o'zlashtirish samaradorligini ta'minlash; idrok etish qobiliyatini rivojlantirish kabi imkoniyatlariga ega. Kompyuter ta'limi masofaviy ta'limning o'ziga xos turi sanaladi.

Individual ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra shaxs tomonidan uning uchun qulay bo'lgan vaqt, makon va ma'lum muddatda muayyan dastur asosida bilim olinishini ta'minlaydi. Ushbu ta'lim vaqtni iqtisod qilish, ortiqcha kuch va mablag' sarflanmaslik, maqbul dastur, vaqt va makonni tanlash imkoniyatini yaratadi. Uning keng ommalashgan shakli repititorlik ta'limidir. Repititorlik ta'limi (lot. "re-pititor" – orqaga qaytarishni talab qiluvchi; takrorlovchi) – bu ta'limda o'quvchiga ma'lum bir o'quv fani yoki kursi bo'yicha chuqur bilimlarni berish maqsadida tashkil etiladigan pulli qo'shimcha ta'lim turi sanaladi.

Mustaqil ta'lim olingan bilim, ko'nikma, malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadida tashkil etiladi. Mustaqil ta'limning afzalligi o'quvchilar bilimlarni o'zlari uchun qulay bo'lgan sharoit va vaqtda o'zlashtira oladilar. Bugungi kunda mustaqil ta'lim olish uchun keng imkoniyatlar mavjud. O'quvchi mavjud nashr ishlari (o'quv, ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop asarlar), Internet, ommaviy axborot vositalari tomonidan taqdim etilayotgan materiallar yordamida o'z bilim, ko'nikma-malakalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega.

Innovatsion ta'lim (ing. "innovation" – yangilik kiritish, ixtiro) o'quvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zgaralar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalarni qabul qilishga oid sifat, malakalarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Mazkur tushuncha 1979 yilda Rim klubida "Ta'lim olishning chegarasi yo'q" ("Net pre-delov obucheniyu") mavzusidagi ma'ruzada tilga olingan. Uzlaksiz ta'limda innovatsion ta'limdan foydalanish o'quvchilarni ta'lim sohalarida yangiliklarni yaratish, ilg'or g'oyalarni asoslash, amaliyotga samarali tatbiq etishga tayyorlaydi [2,4,6,7,9,11,13].

Har qanday ta'limning maqsadi – ta'lim oluvchilarda bilim, ko'nikmalar va malakalarni shakllantirishdan iboratdir. Shuning uchun, ta'lim usuli, vositasi va shaklini tanlashda eng asosiy omil bo'lib aniq o'quv mashg'ulotining maqsadi va vazifasi xizmat qiladi.

Ta'lim vositalariga quyidagilar kiradi:

Kommunikativ vositalar: *Pedagog nutqi* (savodli, so'z boyligi, obrazlilik); *Nutq texnikasi*: intonatsiya, tembr, temp, diapazon, diksiya, pauza, ton (ohang); *Verbal ta'sir* – so'z orqali; *Noverbal ta'sir* – so'zsiz (mimika, pantomimika, jestlar, vizual kontakt);

Ko'rgazmali vositalar: rasmlar, ilustrasiyalar, sxemalar, plakatlar, diagrammalar

Didaktik vositalar: Darsliklar, O'quv qo'llanmalar, Uslubiy qo'llanmalar, Tarqatma materiallar, Kartochkalar

Texnik vositalar: Kompyuter, Planshet, Telefon, Videoproektor, Ekran, Slayd-taqdimot, Audio va videomateriallar, Multimediyalar Trenajyorlar Doska (oddiy, markerli, flipchart); Laboratoriya uskunolari, jihozlar, asboblari, anjomlar, simulyatorlar.

Hozirgi pedagogika amaliyotida ta'lim shakllarining 10 dan ortiq turlari mavjudligi e'tirof etiladi. Ushbu ta'lim

shakllarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda turli yondashuvlar va usullar mavjud. Ammo bugungi zamonaviy ta'lim talabalarini ta'lim jarayonidagi faolligini oshirishga qaratilgan faol shakllarni qo'llashni talab etadi.

Shuni e'tiborga olish kerakki, faol o'qitish shaklini tanlash nafaqat ta'lim maqsadiga, balki o'quv material mazmuniga ham bog'liq bo'ladi. Faol ta'lim shakllarini maqsadli yo'naltirilgan tanlash belgilangan o'quv maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Faol usulni tanlashda uning samaradorlik darajasini e'tiborga olish ham ahamiyatga ega. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'quv material og'zaki bayon etilganda talabalar ma'lumotning 5-10 % ni eslab qoladilar. O'quv adabiyotlaridan mustaqil o'qish, ma'lumotning 10-15 % ni, ko'rgazmali materiallar esa ma'lumotlarning 20-25 % ni o'zlashtirishga imkon beradi. Amaliy usullar eng samarali usul hisoblanib, talabalar ongida ma'lumotning 75%i saqlanib qoladi. Lekin, o'quv-materiallarini talabalar tomonidan mustaqil o'rganish, amaliy mashg'ulotlarini mustaqil bajarish metodlari undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90 % bilim o'zlashtiriladi va ko'nikma shakllanadi. Demak, talabalarni mustaqil o'rganish, izlanish, muammolarni mustaqil yechish, amaliy ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan innovatsion usullarni qo'llash yaxshi samara beradi.

O'qitish jarayonida guruhdagi talabalar soni muhim ahamiyatga ega. Agar guruhda talabalar ko'pchilik bo'lmasa, eng faol metoddan foydalanib, o'qitishni tashkil etish mumkin. Agar talabalar ko'p bo'lsa, faol metodlardan foydalanish yaxshi natija bermasligi mumkin. Talabalarining har biri bilan ishlash uchun vaqt yetishmaydi.

Ba'zi faol metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilinmaydi, ammo maxsus o'quv-moddiy sharoitlar talab qiladigan faol metodlardan foydalanmoqchi bo'lsak, u holda didaktik ta'minotni amalga oshirishimiz kerak. Ta'lim shakllarini tanlashda o'quv guruhidagi ta'lim oluvchilarning soni muhim ahamiyatga ega. Katta guruhlar uchun o'quv materialini og'zaki bayon qilish usullari (ma'ruza, hikoya, tushuntirish) ko'proq mos keladi.

O'qitishning innovatsion usullarini tanlashda ta'lim oluvchilarning o'quv imkoniyatlarini hisobga olish juda muhim: yoshi, tayyorgarlik darajasi, hamda jamoadagi o'zaro munosabatlarining o'ziga xosligini, talabalarining o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini e'tiborga olish muhimdir. Dasturning yoki o'quv kursi mavzularining davomiyligi tabiiyki, ta'lim usulini tanlashga ta'sir ko'rsatadi. Ularning ba'zilari talabalarni tayyorlashga qancha ko'p vaqt talab qilsa, bu faoliyatni bajarilishiga ham shuncha vaqt talab qiladi. Ta'lim muddati shunchalik chegaralangan bo'lishi mumkinki, ko'p vaqt talab qiladigan metodni siz o'ylaganchalik tez-tez ishlatish imkonini bermaydi, bu holda bu metodlarni faqat maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llashingiz mumkin.

Vaqt – u yoki bu usulni amalga oshirishga ketgan mehnatingiz nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. Ba'zi metodlar sizdan boshqalarga nisbatan ko'proq tayyorgarlikni talab qiladi. Shuning uchun bunday usullarni qo'llashni rejalashtirayotib, siz faoliyatni tashkil qilishning ushbu metodini amalga oshirishni tayyorlashga vaqt va kuch yetarli, deb o'zingizga savol berishingiz kerak. Ba'zi metodlarni qo'llashda alohida sharoitlar talab qilanmaydi: kompyuter, maxsus